

## **RESPUBLIKAMIZDA YO'L QURILISHINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Alikulova Madina Ural qizi**

Termiz muhandislik texnologiya instituti

**Odinayev Rustam Qurbanaliyevich**

**Ilmiy rahbar:**

Yo'l qurilishi kafedrasi katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada yo'l qurilishida rivojlanish istiqbollari, yo'llarning sifat nazariyasini rivojlantirish tendensiyalarni o'rganildi va ko'rib chiqildi. Respublikada yo'l qurilishiga bo'lgan talablarni yechimini topish maqsad qilib olingan.

**Kalit so'zlar:** Yo'l qurilishi, transport yo'laklari, yo'l xo'jaligi, asfalt, avtomobil yo'llari.

## **CONSTRUCTION OF A ROAD IN OUR REPUBLIC IMPROVEMENT**

**Alikulova Madina Ural qizi**

Termiz Institute of Engineering Technology

**Odinayev Rustam Gurbanaliyevich**

**Scientific supervisor:**

**Senior teacher of the** Department of Road Construction

### **ABSTRACT**

In this article, the prospects of development in road construction, trends in the development of the theory of road quality were studied and reviewed. The goal was to find a solution to the requirements for road construction in the republic.

**Key words:** Road construction, transport corridors, road management, asphalt, highways

## KIRISH

Hozirgi kunda yo‘llarga bo‘lgan talablarni qondirish, sifat darajasini oshirish, transport yo‘laklariga bo‘lgan talablarni qondirish dolzarb muammolarimizdan biri bo‘lib kelmoqda.Yo‘l xo‘jaligi sohasinining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi,uning umumiy xususiyati hisoblanadi. Iqtisodiyotning umumiy rivoji, aholi barcha qatlamlarining hayot sifati ayni shu tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq.Mamlakatimizda avtomobil yo‘llari tarmog‘i bo‘yicha yuzaga kelgan haqiqiy holat va rivojlanish darajasi yo‘l xo‘jaligining barcha yo‘nalishlariga doir aniq va samarali choralarни ishlab chiqishni,avtomobil yo‘llarini boshqarishda hamda iqtisodiyot va aholi ehtiyojlariga muvofiq respublikamizda yo‘l tarmog‘i holatini sifat jihatidan o‘zgartirishga qaratilgan qo‘sishma choralar qabul qilishni taqozo etmoqda. Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish ishlariga kompleks yondashish asosida yo‘l xo‘jaligini boshqarishning samarali tizimini shakllantirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish,bu borada loyihalashtirish va yo‘l-qurilish ishlari sifatini oshirish imkonini beradigan to‘laqonli buyurtmachi xizmatini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.Farmonda tugatilayotgan avtomobil yo‘llarini qurish va foydalanish davlat aksiyadorlik kompaniyasi (“O‘zavtoyo‘l”DAK”) negizida O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasini tashkil etish nazarda tutiladi. Yo‘l xo‘jaligi sohasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega ekanligi,uning muhim xususiyati hisoblanadi,Iqtisodiyotning umumiy rivoji,aholi barcha qatlamlarining hayot sifati ayni shu tizimning samarali faoliyat ko‘rsatishiga bog‘liq. Mustaqillik yillarida viloyatlar va tumanlarning ma’muriy markazlarini bog‘lovchi keng tarmoqli transport aloqalari hamda davlatlararo xavfsiz transport tashuvularini ta‘minlashga qaratilgan yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Ayni vaqtida, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini boshqarish tizimi, avtomobil yo‘llarini boshqarish tizimi, avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish ishlariga yo‘naltirilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ana shu yo‘llarning bugungi kundagi holati bilan bog‘liq bir qator choratadbirlar olib borilmoqda. Yo‘llarni qurishda zamonaviy transport oqimi sharoitida avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olib, avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish, loyihalashtirish,qurish va ta‘mirlash va ulardan foydalanish masalalari kompleks hal etilishini ta‘minlash hamda buyurtmachi xizmatining samarali faoliyatini tashkil etishdir. Xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarining, shaharlar,

shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalarining mavjud tarmog‘i saqlanishini ta’minalash ishlarini muvofiqlashtirish, ulardan transportda foydalanish darajasi yuqori bo‘lishini ta’minalash. Yo‘l qurilishi ishlarida yuqori unumdarlik va ko‘p qirrali zamonaviy uskunalardan foydalanish ishlarni tez va sifatli bajarish imkonini beradi. Eng avvalo, avtomobil yo‘lida harakatlanishning yuqori xavfsizligi va undan foydalanish qulayligini ta’minalash zarur. Yo‘l qurilish ishlarining sifati-amaldagi me’yorlar talablariga qat’iy rioya etish va qurilish loyihamonini sifatli amalga oshirishdir. Yo‘l qurilishini takomillashtirishda avvalo, sifatli ko‘p vaqtlar xizmat qiladigan katta salohiyatlari yo‘larni yaratish, yo‘llarning sifatna’zariyasini tadbiq etish, yo‘llarning xavfsizligini ta’minalash, mamalakatlararo yo‘llarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muhim nuqta-yo‘lda va uning ba’zasida mumkin bo‘lgan maksimal yuklarni aniqlash. Yo‘l qurilishini takomillashtirishda avvalo zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, sifat va uzoq vaqt muddatga xizmat qiladigan yo‘llarni, yo‘l qurilishida sifatli qoplamlardan foydalanish. Agar kerak bo‘lsa, rejalashtirilgan yo‘l boshlashdan avval vaqtinchalik aylanma yo‘l qurish, U ishchi guruhi loyihamonida ko‘rsatilgan balandlikda qirgo‘q shaklida qurish, qurilish tugagandan so‘ng aylanmalar demontaj qilinsa yo‘l qurilishi yanada sifatli va uzoq muddat xizmat qiladi. Yo‘l qurilishi xarajatlarini optimallashtirish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yo‘llarni qurishda chet el shartnomalar doirasida amalga oshirishdir. Zero yo‘l qurilishi katta moliyaviy va jismoniy xarajatlarini talab qiluvchi murakkab ko‘p bosqichli jarayondir. Birinchi vazifa ishonchliyangi pudratchi tanlashdir. Mutaxasislarning malakali jamoasi va maxsus texnikalarga ega bo‘lishligi zarur. Yaxshi qurilgan yo‘l talab qilinadigan standartlariga javob berishi, Chunki nafaqat haydovchilar balki, yo‘lovchilar uchun ham qulay va xavfsizligini hisobga olgan holda yo‘llarni qurish talab etiladi. Yo‘l qurishning birinchi bosqichi loyihalashdir. Yo‘l qurilishini takomillashtirishda:

- Amaldagi transport yo‘laklarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish, shuningdek yangi transport yo‘laklarini yaratish
  - Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minalash va atrof-muhit bilan bog‘liqligini o‘rganib chiqish:
    - Mavjud yo‘l tarmog‘ini yaratishda avtomobil yo‘llarining xàlqaro tranzit yo‘laklarini shakllantirish:
      - Avtomobil yo‘llari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, jumladan, chet ellarda o‘qish jarayoni va seminarlarni tashkil etish:

- Avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash:

- Avtomobil yo‘llarining tranzit yo‘llarini shakllantirish:
- Avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnik siyosatni olib borish:
- Avtomobil yo‘llari barcha texnik jihatdan javob berishi, xavfsiz bo‘lishi:

Avtotransport ortiqcha yo‘l bosishishiga barham berish va tuman markazlarida yirik punktlar o‘rtasida eng yaqinyo‘llar aloqasini ta’minalash uchun mintaqaviy yo‘l tarmog‘ining yuzaga kelgan tuzilmasini to‘ldiradigan yangi xordali va bog‘lovchi yo‘llarni qurish zarur. Xalqaro transport yo‘laklari tarkibidagi eng yirik markazlari o‘rtasidagi aloqani ta’minalash va avtomobil yo‘llariga birlashtirish uchun ko‘p bo‘lakli avtomagistrallar va tez yurish imkonini beradigan sifatli yo‘llarni shakllantirish va takomilalshtirish, muhim transport tugunlariga va transport tizimining infratuzilmasining boshqa obyektlarga kirishini ta’minalash orqali mamlakat yo‘l qurilishi uyg‘un rivojlanishiga yordam beradi. Yo‘l qurilishini takomillashtirishning asosiy na’zariyasi mana shular jumlasidandir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Yo‘l xo‘jaligini rivojlantirish” manbalari
2. “Yo‘l qurilishini takomillashtirish”
3. A. Abduvaliyev “Yo‘l transporti va muhandislik kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari